



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 5-6 (924–925)
8-mart, shanba
2022-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
mardan chiqqa
boshlagan

AYOLGA EHTIROM – MILLATGA EHTIROM

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Ayolga ehtirom millatga, millat kelajagiga, ajdodlar yodiga ehtiromdir. Ayol so‘zini eshitishimiz bilan ruhiyatimizga xotirjamlik, qalbimizga orom quyuladi, qulog‘imizda jonbaxsh alla ovozlari yangragandek bo‘ladi. Onamiz, yorimiz, opa-singlimiz, qizimiz qiyofasida hayotimizga mazmun bag‘ishlaydi. Ayol suvratida harakat bor, bedorlik, beoromlik bor. Shuning uchun Ayolni jamiyatning yorug‘lik burji, harorat, mehr-muhabbat burji deb ataymiz. Qaysi mamlakatda go‘zallikka, mehr-muhabbat, sadoqat, buniyodkorlik, yaratishga ehtirom bo‘lsa, eng avvalo, ayolga e’tibor ko‘rsatadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevral-dagi PF-5325-sonli “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila instituti ni mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va farmon ijrosini ta’minalash maqsadida targ‘ibot ishlari olib borildi.

Jumladan: Oila markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’lim, fan, adabiyot, madaniyat, san’at, sport va jamoatchilik faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga har yili 26 ta

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlari ta’minalangan jamiyatda albatta tinchlik,adolat, erkinlik va farovonlik bo‘ladi.

Ayol baxtli bo‘lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

o‘rin ajratilgan va magistraturaga tegishli yo‘nalish hamda ixtisoslik bo‘yicha kirish sinovlarisiz davlat grantlari asosida oliy ta’lim muassasalariga qabul qilinadi, shuningdek “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni ta’sis etilgan. Qolaversa, har yili 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida jamiyatimizning turli jabhalarida faoliyat ko‘rsatayotgan nozik xilqat vakillari davlatimiz rahbari tomonidan munosin taqdirlanadi. Oiladagi mas’uliyat, farzand parvarishi, kundalik yushmanlar bilan parallel ravishda ijtimoiy faoliyatida ham erkaklardan qolishmay olg‘a odimlayotgan ayollarimizga har qancha tahsin aytsak, ulug‘lasak arziydi. Nozik yelkasidagi ko‘rinmas yuklarni yelkalab mardonavor tabassum qilayotgan ayollar – bizning, millatimizning qahramonlaridir.

Bu yil poytaxtimizdagи xalqaro kongress markazida yurtimizda ham o‘z sohasida yuksak yutuqlarga erishgan opa-singillarga “Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonga muvofiq faxriy unvon, orden va medallar topshirildi.

Institutimiz jamoasi orasida ham ana shunday millat qahramonlarining borligi bizni behad quvontiradi. Talaba-yoshlarga ustozlik talabi, onalik mehri, opalik samimiyyati bilan ta’lim berib kelayotgan ayol-qizlarimiz barchamizning eng yaqin insonlarimizga aylangan. Ins-

titutimizda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning 8 nafar professori, 30 nafar fan doktori, 70 nafar dozent va 110 nafar fan nomzodlarini ayol-qizlar tashkil etadi.

Institut xodima ayollari professor-o‘qituvchilari uchun har yili respublikamiz hududidagi tarixiy zi-yoratgohlarga va dom olish oromgohlariga sayohatlar uyuşhtirib boriladi.

Huquqiy savodxonlik doirasida institutimiz xotin-qizlar kengashi tomonidan xotin-qizlar huquqlarini ta’minalash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo‘ravonlik, zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish hamda xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida “Gender tenglikni ta’minalash va barqaror rivojlanish” mavzusida seminar-treninglar tashkil etiladi.

Ayollar hayotimizni tartibga solib turuvchi beminnat yordamchilarimiz. Ayollari ma’naviyatli, ilmli, faol millatning kelajagi doim porloq bo‘lgan. Bugungi islohotlar negizida ham shu haqiqat yotibdi. Biz Sizga doim ehtiromdamiz, aziz ayollar.

Prezidentimiz bayram tabrigida ayollar, qizlarimizga g‘amxo‘rlik va e’tibor haqida gapirar ekanlar, Prezidentdan tortib eng quyib o‘g‘indagi rahbar va mutasadilarning “Ayol baxtli bo‘lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo‘ladi”, degan mezonga amal qilib ishlashi zarurligini ta’kidladilar.

ONADAN TUG'ILGAN PAYG'AMBARLAR HAM...



Onam – haqiqiy mehr bulog'ining timsolli edilar. Ular uzoq yillar hamshira bo'lib ishlaganlar. Mening shifokor bo'lishimni, istitutga kirganimni eshitib hammadan ko'p xursand bo'lgan inson ham onam edilar. Bizni doim sarishta, biror kam-ko'stsiz yurishimizda onamning xizmatlari katta. Oila a'zolarining ahilligi, otamizga

bo'lgan hurmat, ularning obro'lari, ham uyimizning fayzi bo'lgan onam Aziza Jalilova tufayli ekanligi tabiiy edi. Axir bezizga aytishmaydi-ku, har bir muvaffaqiyat qozongan erkak yutug'i ortida ayolning ulkan mehnati yotadi, deb. Otamning shifokorlik kasbidagi ishlarining osoyishtaligi ham, uy, oila, farzandlar tarbiyasi ishonchli qo'lida bo'lganligida edi. Onalar buyukligini bir so'z bilan ta'riffab bo'lmaydi. Ona-

lar, ayollar hayotimizdagи tayanchimiz. Ularning xotirasi sifatida nevaramga Aziza deb ism qo'yidik. Yana bir nevaramizga qaynonamning ismlarini qo'yanmiz. Onajonlarimiz xotirasi, ruhi go'yo hamisha biz bilan hozir.

Bu go'zal bayramda hamma ayolalarimizga sog'-salomatlik tilab qolaman.

A.A.JALILOV,
Davolash ishlari prorektori.

BUYUK TARBIYACHIMIZ



Ko'pchilik Edison haqida o'qigan bo'lsa kerak. Uni mактабдан fanlarни o'zlashtirmagani uchun haydashmoqchi bo'lib, onasiga "O'g'lingizning aqli zaif, bu maktabda o'qishga noloyiq, uni aqli zaiflar mакtabiga bering", – degan xatni o'zidan berib yuborishadi.

Onasi bu xatni o'qib yig'laganda o'g'li bu yig'ining sababini so'raydi. Onasi esa: "O'g'lim, sendan faxrlanganimdan yig'layapman, o'g'lingiz shunday iqdidorlik, bizning o'qituvchilarimizning bilimi uni o'qitishga yetmayapti. Shuning uchun yanada nufuzli mакtabga bering deyishibdi", – deydi.

Onasi vafot etib ancha yil o'tgach Edison o'sha xatni topib

oladi va o'qigach yig'lab shunday deydi:

– Edison aqli zaif bola edi, ammdono onasi tufayli u dahoga aylandi.

Onajonlarni – buyuk tarbiyachilarini, barcha ayol, qizlarni bayram bilan tabriklab, barcha orzularining amalga oshishini tilab qolaman.

Jamoliddin JO'RAQULOV,
tyutor

JANNAT ONALAR OYOG'I OSTIDA



Bir kuni bahosini baland qo'yishni so'ragan o'quvchiga ustoz qiyin vazifa beribdi.

– Mayli menga jannat tuprog'ini olib kelsang bahoingni ko'tarib beraman, – debdi ustoz.

O'qituvchi bolakay bu vazifani bajara olmasligi aniq degan xulosaga kelgan edi. Ammo ertasi kuni o'quvchisi bir idishda tuproq keltirganini ko'rib hayratdan yoqa ushlaydi.

– Bu tuproqni qayerdan olding? – so'raydi u.

– Onam izi tushgan tuproqni olib keldim, – deydi bolakay, – axir jannat

onalar oyog'i ostida-ku.

Haqiqatdan ham onalarning buyukligiga ta'rif-tavsif yo'q. Ular bilan dunyo charog'on. Ular biz haqimizda har daqiqa o'ylashadi.

Ramazon A'ZAMOV,
Davolash ishi fakulteti
409-guruh talabasi

ONAMDAN O'TGAN FAZILAT



Ona! Bu so'z zamirida butun borlig'imiz ko'z oldimizda gavdalanadi.

Mening onam Valentina Georgiyevna Vasilyeva meni yolg'iz o'zlar oyoqqa turg'izganlar. Otam ikkinchi jahon urushi paytida Stalingrad ostonasida halok bo'lganlar. O'shanda

onam 29 yoshda edilar. Hayotlari ni menga bag'ishlaganlar. Boshqa turmush qurmaganlar. Onamni chin ma'noda matonatli, sabrli va yuksak sadoqatga ega inson deb ta'riffash mumkin. Bu mehnat faoliyatiga ham tegishli. Ular o'z ish joylarida 50 yil xizmat qilganlar. Onamning tarbiyasi, albatta farzandlarida aks etadi. Men ham Toshkent pediatriya institutida

xizmat qilayotganimga yaqinda ellik yil bo'ladi.

Onalik – jasorat, iste'dod. Men bu ulug' martaba egalarining barchasiga sog'lik va salomatlik tilayman.

Venyamin VASILYEV,
Nо1 oilaviy shifokorlik,
Jismoniy tarbiya fuqarolar muhofazasi kafedrasи
katta o'qituvchisi

TA'LIM KREDITI – YOSHLAR UCHUN IMKONIYAT

Barcha asrlarda mamlakat kelajagi yoshlar bo'lgan holda, ular inqilob, taraqqiyot va rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib xizmat qilgan. Davlat ularga urush paytida, urushdan keyingi davrda, inqirozlar davrida tayanishi aniq edi. Axir, ular yosh, sog'lom, sharafini saqlovchi va Vatanining himoyalovchisidirlar. Katta avlodning vazifasi esa yoshlarga ushbu murakkab dunyoda o'zlarining munosib o'rnnini topishga yordam berishdan, o'zlarini imkon qadar anglab yetishiga ko'maklashishdan iborat bo'lgan. Chunki katta avlod vakillari mamlakat kelajagini kuchli va ishonchli qo'llarga topshirishlari shart edi. Xuddi, ayni davrdagidek.

Dunyoning qiyofasi o'zgarib borarkan, yoshlarga bo'lgan e'tibor boshqa davrlarga nisbatan juda salmoqli darajada ortdi va ortib borayotir. Sog'liqni saqlashdan tortib to ta'lismizgacha barcha yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarniki va barcha narsa ularga xizmat qilmoqda. Xususan, ta'lismizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lismizdagi islohotlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lismizini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib berdi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkmalash maqsadida fan, ta'lismizda ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar

asos qilib olingan. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lismizini isloh qilishning ustuvor yo'naliшlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lismiz sifatini oshirish, raqamlili texnologiyalar va ta'lismiz platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'naliшlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lismiz jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Shu o'rinda hozirgi kunda oliy ta'lismizda tahsil olayotgan talabalar uchun asosiy muammo to'lov-kantraktini to'lash bilan bog'liq masala ekanligini hisobga olgan holda va talabalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2021-yil 18-avgustda "Oliy ta'lismiz tashkilotlarida to'lov-kontrakt asosida o'qish uchun ta'lismiz kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori qabul qilindi.

Qarorda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan davlat, nodavlat, xorijiy oliy ta'lismiz tashkilotlari, xorijiy oliy ta'lismiz tashkilotlari ning filiallari va qo'shma ta'lismiz dasturlari bo'yicha kunduzgi ta'lismiz shaklida bakalavriat hamda magistraturada tahsil olayotgan talabalarga Markaziy bankning asosiy stavkasi (*14 foiz*) miqdorida ta'lismiz krediti ajratilishi belgilandi.

Ta'lismiz kreditlari uchun foizlarni hisoblash va to'lash oliy ta'lismiz tashkilotiga mablag'lar o'tkazilgan sanadan boshlab,

asosiy qarzni qaytarish esa talabaning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi.

Aytaylik, 2-kursda o'qiyotgan, yillik kontrakt to'lovi 10 mln. so'm bo'lgan talaba ta'lismiz krediti olsa, kredit foizini (*hозirda 14 foiz*) o'qish davomida oyma-oy to'lab boradi. 10 mln. so'mning 14 foizi (*1,4 mln. so'mni*) bir yilda to'lansa, bir oyga 117 ming so'mdan to'g'ri kelmoqda. Qolgan asosiy qarzni (*10 mln so'mni*) talaba o'qishni bitirgandan keyin, oradan 7 oy o'tib (*bu vaqt davomida bemalol ishga kirishga ham ulguradi*) 7 yil davomida to'lashi mumkin. Shunda bir oyga 119 ming so'mdan to'g'ri kelmoqda.

Ota-onasi rasmiy ishda ishlamaydigan yoki "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"ga kirmagan oilalar talabalarini kafil topishda qiyinalishadi, sirtqi yoki kechki ta'lismiz shaklida o'qiydigan talabalar esa ushbu ta'lismiz kreditini ololmaydi. Shunday bo'lsa-da, 2021-yil yakuniga ko'ra, 19 879 nafar talaba mazkur ta'lismiz kreditidan foydalanishgan. Ta'lismiz kreditini olish tartibi juda oddiy tartibda tuzilgan. Unga ko'ra talabaning arizasi va ota-onasining vasiyligi asosdir. Xususan, ToshPTIning salmoqli talabalarini ham ta'lismiz kreditini hech qanday muammolarsiz olishgan. Imkoniyatlar eshigi deya ta'rif berilayotgan O'zbekistonda ta'lismiz krediti talabalarga katta qulaylik va ishonchdir.

***Q.N. HAITOV,
ToshPTI o'quv ishlari
prorektori, professor***

XALQARO E'TIROF

Dunyo rivojlanishga yuz tutgan sayin ilm-fanning yangi yutuqlariga bo‘lgan talab ham o‘sib bormoqda. Jahon mamlakatlari oliy ta’lim muassasalarining sifat ko‘rsatkichlari yuzasidan tashkil qilinadigan raqobat sohalardagi yangi kashfiyotlar, marralar kafolatidir. Shu maqsadda har yili ta’lim dargohlari, olyigohlari o‘rtasida ham nazoratning yangi nomlari maydonda ko‘rinish beradi. Quyida shu xususdagi O‘zbekistonning yutug‘i haqida aytmoqchimiz.

Buguk Britaniyaning nufuzli reyting tashkiloti – “Times Higher

Education” agentligi “Young University Rankings – 2022” (Yosh universitetlar reytingi – 2022) reyting natijalarini e’lon qildi. Unga ko‘ra, mamlakatimizdagи 4 ta oliy ta’lim muassasasi ilk bor “Reporter” universitetlar qatorida e’tirof etildi. Ular orasida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti ham borligi bizni quvontiradi.

Ushbu maqom orqali Toshkent pediatriya tibbiyot instituti dunyoning TOP universitetlari reytingiga kirish uchun pil-lapoyadan yana bir pog‘ona yuqoriladi.

Ma’lumot o‘rnida, “Young University Rankings” reytingi dunyoning 50 va undan kichik yoshdagi eng yaxshi universitetlari ro‘yxatini tuzadi. Ro‘yxat “World University Rankings” flagmani bilan bir xil 13 ta mezon ko‘rsatkichlariga asoslanadi.

O‘ylaymizki, bu yutuq Toshkent pediatriya tibbiyot instituting keying faoliyatida katta nazorat nigohi bo‘ladi.

**Muborak AHMEDOVA,
Yoshlar bilan ishlash
prorektori**

NUFUZLI XALQARO EKSPERTLAR GURUHI TASHRIF BUYURDI



Bugun har bir sohada innovatsiyalarning o‘rni juda muhim. Jumladan, sog‘liqni saqlash tizimida ham bunga ehtiyoj yuqori.

Toshkent pediatriya tibbiyot institutida O‘zbekistonda tibbiyotni rivojlantirish uchun Sog‘liqni saqlash vazirligiga jalg‘etilgan Jahon banki ekspertlari dan iborat delegatsiya vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish doirasida olib borilayotgan ishlar muhokama etildi.

Mazkur hujjat Prezidentimizning 2021-yil 25-maydagi “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘simecha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida tayyorlan-

moqda. Bu jarayonga qator xalqaro tashkilotlar ekspertlari va maslahatchilarini jaib etilgan.

Strategiya O‘zbekistonda tibbiyotni yangi bosqichga olib chiqishni ko‘zda tutadi. U tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yanada yaxshilash, sohani moliyalash-tirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, elektron sog‘liqni saqlash tizimini rivojlan-tirish, tibbiyot xodimlari salohiyati ni oshirish kabi sakkizta muhim yo‘nalishni qamrab oladi.

Qolaversa, tibbiyotni jahon standartlari darajasiga olib chiqishda ilg‘or boshqaruv menejmenti hal qiluvchi o‘rin tutishini xalqaro amaliyot tasdiqlaydi. Muammoli masalalarga kreativ yondashish, zamonaviy tendensiyalar asosida yechim topish orqali esa ko‘zlangan marralarga tez va samarali erishish mumkin.

Shu maqsadda birinchi bosqicha-Jahon banki ekspertlari ko‘magida ishchi guruhlar tuzilib, xalqaro va mahalliy maslahatchilar uchun texnik topshiriqlar ishlab chiqildi hamda ularga bir qator talablar belgilandi.

Navbatdagi bosqichda xalqaro ekspertlar tomonidan sohada kadrlarni tayyorlash yo‘nalishi bo‘yicha situatsion tahlil o‘tkaziladi. Hozir bu borada amaliy ishlarga kirishilgan va xalqaro ekspertlar Toshkent pediatriya tibbiyot institutida o‘rganishlar olib boradi.

Sohada kadrlarni tayyorlash yo‘nalishi bo‘yicha tibbiyot ta’lim muassasalarida real vaziyat atroficha o‘rganilgach, to‘plangan ma’lumot va dalillar tahlil qilinib, ekspert va ishchi guruhlar tomonidan xolis baholanadi va tegishli tavsiyalar taqdim etiladi.

Albatta, bularning barchasi sohadagi muammolarga xalqaro tajriba va eng ilg‘or yondashuvlar asosida amaliy yechim topishga xizmat qiladi.

Uchrashuvda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori B.T.Daminov boshchiligidagi bir guruh mutasaddilar va Jahon banki tomonidan jaib etilgan xalqaro ekspertlar strategiyani ishlab chiqish bilan bog‘liq muhim vazifalar xususida fikr almashdilar.

**Xasanxo‘ja ABIDOV,
ToshPTI matbuot kotibi**

ZULFIYAXONIM IZDOSHLARI

Zulfiyaxonim Isroilova o'zbek xalqining iste'dodli shoirasi va ardoqli farzandidir. Hayot yo'li sadoqat va vafoning timsoliga aylangan shoiraning she'rlari o'qiguvchining ko'ngliga misrama-misra ko'chib borarkan, bahorni, hijronni, sadoqatni tarannum etguvchi she'rlarga beixtiyor ayqashib ketadi.

Shoiraning ijodini bugun nafaqat o'zbekning, balki 7 ta o'zga millatning bahradorlari sevib o'qishadi, o'rganishadi.

Har yili 1-mart yurtimizda Zulfiyaxonimning tavalludi munosabati o'laroq o'zgacha fusun-u malohatda keng ko'lamda nishonlanishi hech kimga yangilik emas. Mushoira kechalari, she'riyat oqshomlari shular jumlasi-dandir.

Xususan, 2022-yil 2-mart kuni Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ham Xotin-qizlar Maslahat kengashi tomonidan O'zbekiston xalq shoirasining tavallud kuni ni nishonlash maqsadida talaba-qizlar o'rtasida "Qizlar davrasi" ko'rik tanlov o'tkazildi. Bu ko'rik tanlov Zulfiyaxonimning izdoshlariga o'zlarining iqtidor va iste'dodlarini namoyon etish bilan birga institutda tahsil olayotgan qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlashda va tashkillashtirilishi-

da albatta o'zining sezirarli samarasini ham beradi.

Ko'rik-tanlov g'oliblarini aniqlash uchun Yunusobod tumani Xotin-qizlar masalalari bo'yicha hokim maslahatchisi Sh.Ibragimova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist G.Nosirova, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri aktyori M.Xamidov, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor M.Ahmedova, Xotin-qizlar Maslahat Kengashi raisi D.Usta-Azizova hamda Jamoat salomatligi va sog'lijni saqlashni boshqarish kafedrasi dotsenti M. Fayziyevalardan iborat hay'at a'zolari taklif etildi va ular "Davra qizlari" bo'lmish Zulfiyaxonim izdoshlariga o'z e'tiroflarini bildirib borschidi.

Tadbir Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor M.Ahmedova so'zi bilan boshlandi. So'ngra qizlar belgilangan shartlar bo'yicha sahnada o'z mahoratlarini ko'rsatdilar. Milliylik va zamonaviylik uyg'unligini ifoda eta olgan qizlarimiz har sohada faol ekanliklarini mana shu kechada yana bir bor isbotlab bera oldilar.

Ko'rik-tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra tanlovning mutloq g'olibi va 1-o'rin sohibasi etib Tib-



biy pedagogika va davolash fakulteti 206-guruhi talabasi Haydarova Gulyora e'tirof etilarkan, tadbir kechasida har bir ishtirokchi qizlar bir-birlaridan turli jabhalarda ustun ekanliklarini namoyish eta oldilar desak aslo mubolog'a bo'lmaydi.

Ko'rik-tanlov yakunida Zulfiyaxonim izdoshlariga tanlov tashkilotchilari Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor M.Ahmedova va Xotin-qizlar Maslahat Kengashi raisi D.Usta-Azizovalar tomonidan diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Zulfiyaxonim she'rlari o'qiguvchining ruhini yerdan samovatga elta oladigan "Isro"dek mo'jizakor. Shoiraning osmonida she'r uchgani yerlarida she'r ungani kabi, Zulfiyaxonimning barcha izdoshlarining osmoni ham yerlari ham she'r bo'lsin deymiz va omad tilaymiz!

**Dilnoza USTA-AZIZOVA,
Xotin qizlar maslahat
kengashi raisi**

ЛУЧШИЙ СТУДЕНТ ГОДА



— Диёра, Вы заняли почетное 1 место в международном конкурсе «Лучший студент СНГ-2021». Это не только достижение Ташкентского педиатрического медицинского института, но и большая честь для Узбекистана. Расскажите о критериях организации международного конкурса.

— Спасибо большое! Для меня большая честь быть гордостью Узбекистана и представлять нашу Родину на международных конкурсах. «Лучший студент СНГ» — это международный конкурс, который проводится среди студентов стран СНГ бакалавриата и магистратуры по различным направлениям, такими как: наука, искусство, спорт и общественная деятельность. При этом каждый студент, изъявивший желание участвовать в конкурсе, должен собрать портфолио своих достижений и участвовать в одном из направлений конкурса. Портфолио включает в себя: написание автобиографии и прикрепление документов, подтверждающие ваши достижения (дипломы, сертификаты, патенты, научные работы и т.д.).

Конечно, нужно учитывать количество ваших достижений, чем больше их, тем и больше шансов выиграть конкурс. По итогам конкурса победителям вручают нагрудную медаль и дипломы 1,2,3 степени.

— Большое влияние на мой успех оказала учеба в ТашПМИ. Я очень горда быть студенткой лучшего медицинского вуза, в котором были созданы все необходимые условия для развития и становления студента-медика нашим руководством во главе с Даминовым Б.Т. Помимо этого, всем студентам оказывается поддержка, как и со стороны деканата, так и научно-преподавательским составом. Более глубокой мотивацией для меня явилось, что я студентка международного факультета и спустя время мне придется продолжить учебу в Санкт-Петербурге, и чтобы показать нашу страну на международном уровне только с лучшей стороны, я усердно работала над собой ежедневно.

— Вы в начале большого пути. Каковы ваши мечты на будущее? Какой вы видите Ачилову Диёру через 10 лет?

— Моя главная мечта стать выдающимся врачом, который неустанно трудится во благо нашей Родины. Никогда не останавливаться на достигнутом и стремится вперед, ведь, профессия врача — это ежедневная работа над собой. Через 10 лет явижу себя профессионалом своего дела и что к этому времени у меня будет достаточно большой опыт, который мне поможет развиваться и дальше в медицинской стезе.

— Повлияло ли ваше семейное прошлое на ваш выбор медицинской области? Существуют

ли неписанные золотые правила медицинской профессии, что вы называете предательством?

— Да, безусловно, на мой выбор медицинской профессии повлияло семейное прошлое. С детства у меня была мечта стать заслуженным врачом как мой прадедушка Очилов Фозил Очилович и внести такой же вклад в развитие отечественной медицины. Принято считать, что настоящий врач является эталоном для широкой общественности в вопросах не только охраны здоровья, но и морали. Существует мнение, что врач должен быть всецело предан делу медицины, милосерден, требователен к себе, скромен в быту и потребностях, трезв в оценках, проявлять силу духа и решительность в сложных жизненных ситуациях. Я всецело поддерживаю такую точку зрения, так как врач — это эталон всего самого наилучшего. Предательством считаю нарушение верности кому-либо или неисполнение перед кем-либо долга, в особенности, что должно караться в медицинской сфере.

— Ученые говорят, что Земля вращается быстрее, чем раньше. Мы живем в век информационного кризиса. Что бы вы сказали своим сверстникам?

— Я бы порекомендовала своим сверстникам правильно выбирать необходимую информацию, при этом отделять нужную и ненужную информацию исходя из ваших будущих потребностей. А также не забывать использовать свое время рационально, расставляя приоритеты, чтобы получать выгоду от каждой минуты вашей жизни.

**Беседовала
Шахназ АБДУХОШИМОВА**

SOG‘LOM AYOL SOG‘LOM KELAJAK KAFOLATIDIR

Ayol borki, olam munavvar. U mehribon uy bekasi, xonadon charog‘boni bo‘lish bilan bir qatorda kelajagimiz bo‘lmish yosh avlodni dunyoga kelтирувчи xilqat hamdir. Ayolning salomatligi jamiyatda sog‘lom muhitning yaratilishida asosiy omil hisoblanadi. Shu boisdan ham oila va jamiyatda reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, jismonan va ma’nан barkamol avlodni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, 24-25-fevral kunlari Toshkent pediatriya tibbiyot institutiining davolash (amaliyot) ishlari prorektori – institut klinikasi bosh shifokori A.A.Djalilov, Xotin-qizlar Maslahat Kengashi raisi D.A.Usta-Azizova hamda klinik o‘quv bazalar bilan ish-lash bo‘limi boshlig‘i M.M.Tadjiyev hamkorligida institutning ayol professor-o‘qituvchilarini va xodimlari uchun institut klinikasida bepul tibbiy ko‘rik o‘tkazildi.

Mazkur tibbiy ko‘rik o‘z oldiga institut professor-o‘qituvchilarini va xodimlarining salomatligini mustahkamlash, tibbiy madaniyatini yuksaltirish, kasalliklarni erta aniqlashni maqsad qilib qo‘ydi.

Institut professor-o‘qituvchilarini va xodimlari oftalmolog, endokrinolog, onkolog, vertebrolog, terapevt, nevrolog singari shifokorlarning tibbiy ko‘rigidan o‘tib, sog‘lig‘idagi muammolarga tavsiya va maslahatlar olishdi.

Shu o‘rinda biz endokrinalogiya va bolalar endokrinologiyasi kafedrasidan, endokrinolog N.T.Rixsiyevaga “endokrinologik kasalliklarning davolash tog‘risida qanday tavsiyalar berasiz” – degan savol bilan yuzlandik. Ularning javobi quydagicha bo‘ldi:

“Endokrin kasallik sizni yaxshi saqlaydigan gormonlarning nozik muvozanatini buzishi mumkin, bu sizning hayotingizni buzadigan alomatlarga olib keladi. Endokrin kasalliklarni davolashda biz turli usullardan foydalanamiz. Ulardan biri gormon terapiyasi bo‘lib, ba’zi gormonlar darajasini tiklash uchun qo’shimchalar olasiz. Agar sizda gormonlar darajasi juda past bo‘lsa, bu davolash sizga mos



kelishi mumkin. Gormon terapiyasi, shuningdek, diabet uchun individual insulin terapiyasini ham o‘z ichiga oladi. Va yana biz tanangizga ma’lum gormonlar ishlab chiqarishni to‘xtatish yoki ularni sekinroq ishlab chiqarishga yordam beradigan dori-darmonlarni buyurishimiz mumkin. Dori-darmonlar, shuningdek, ko‘ngil aynishi va yuqori qon bosimini o‘z ichiga olgan endokrin kasalliklarning nojo‘ya ta’siridan xalos bo‘lishga yordam beradi. Ahamiyatlisi esa, bemorning o‘z sog‘ligiga e’tiborsiz bo‘lmaslidir.”

Shundan so‘ng Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari, tibbiy genetika kafedrasidan nevrolog D.Sh.Nosirovani ham suhbatga tortdik va ulardan ham asab kasalikllariga doir tavsiyalar so‘radik. Nevrolog shifokor D.Sh.Nosirova “Neurologik kasalliklarning davolash va oldini olish kasallik bosqichiga qarab farq qiladi. Nevrolog dori-darmon va jarrohlik amaliyotini tavsiya qilishi mumkin. Ba’zi hollarda shifokor sizni reabilitatsiya va intensiv terapiyaga yotqizishingiz zarurligini so‘rashi mumkin. Sizning nevroloqingiz sizning ehtiyojlarining va maqsadlaringizga javob beradigan davolash bosqichi uchun siz bilan ishlaydi”, – deya javob berdi.

“Tibbiyotda ko‘plab ko‘z kasalliklari qayd etilgan. Bunday patologiyalarning o‘zi xavotirlanish uchun jiddiy sababdir, chunki inson atrofdagi dunyo haqida ta’sirchan miqdordagi foydali ma’lumotlarni oladi. Bundan

tashqari, ko‘rish estetik mammuniyat, ijobjiy his-tuyg‘ular va ichki energiya manbai hisoblanadi. Ko‘proq ko‘rish qobiliyatini saqlab qolish uchun, ko‘z kasalliklari o‘z vaqtida davolanishni talab qiladigan jiddiy muammo ekanligini anglash kerak, aks holda oqibatlari og‘ir bo‘lishi mumkin. Ko‘zlar oldida shishish, miltillovchi paydo bo‘lishi mumkin. Bunday har qanday hodisa shoshilinch ravishda shifokorga yozilish uchun sababdir, chunki bu vaziyatda jiddiy ko‘z kasalligi ehtimoli katta. Faqtina shifokor bemorni sinchkovlik bilan tekshirib, maxsus texnikani qo‘llagan holda, shovqinning sababi nima, ularni qanday yo‘q qilish va vaziyat nimaga olib kelishi mumkinligini aniq ayta ola-di” – degan javob oldik Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi kafedrasidan oftalmolog D.M.Turakulovadan.

Sog‘lik insonning birinchi muhim ehtiyoji. Shaxsning ishga yaroqliliginini, har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. U o‘zini yaxshi his etadi, o‘z ishidan qoniqadi, yoshlikning so‘nmas hissiyoti va ichki go‘zalligidan to‘laqonli bahra ololadi. 24-25-fevral kunlari Toshkent pediatriya tibbiyot institutida tashkil etilgan bepul tibbiy ko‘rikning asosiy maqsadi ham shu – Sog‘lik va unga e’tibor. Zero, sog‘lom ayollar sog‘lom kelajak kafolatidir.

Shahnoza ABDUHOSHIMOVA
suhbatlashdi

NAVRO'Z ILHOMLARI



*Men Farg'ona viloyatida tug'ilganman.
Bolaligimdan she'r yozishga qiziqaman.
Majfunkor tabiat, go'zal xotiralar, beg 'uborliklarni juda ham sevaman. Ushbu go'zalliklar sabab menda ilhom, she'r yozish uchun ishtiyoq jo'sh uradi. Buning uchun Allohimga behad shukurlar aytaman va o'z ustimda muttasil ishslashga, mohir shifokor bo'lish bilan birga o'z so'zuga ega qalam sohibi bo'lishni ham niyat qilganman.*

ONA

*Ona, sizning bu pok qalbingiz,
Tiniq hatto zilol suvdan ham.
Ko'rganimda yuzda kulgungiz,
Men dunyoda eng baxtli odam.
Siz-la go'yo olurman nafas,
O'zingizsiz mening jon-u jahonim.
Joninigiz og 'riydi bizga kirsa xas,
Duogo 'yim, axir siz, onajonim.
Chekib qancha sinov, qancha zahmatlar;
Faqat bizlar deya topdingiz bardosh.
Halollik, to'g'rilik kabi sifatlar;
Sizga har soniya, har muddat yo'ldosh.
Allohimdan so'ragum har dam,
Bizga siz o'zingiz doim bosh bo'ling.
Qalbingizni aslo o'rtamasin g'am,
Yayrab, yashnab yuring, shodlaning, kuling.
Faqat bolam deya yashaysiz hargiz,
Biz bor siz uchun hayot, dunyo bor.
Shu duolar sabab baxtimiz tengsiz,
Har dam bizlar uchun omad bo'lgay yor.
Siz-la guyo olurman nafas,
Aslida o'zingiz jon-u jahonim.
Bizlar deb yashabsiz, tinmaysiz birpas,
Duogo 'yim mening, jon onajonim.*

**Guljahan MELIQUZIYEVA,
1-bosqich talabasi**

BOSHQACHA BO'LADI QISHLOQDA BAHOR

*Boshqacha bo'ladi qishloqda hor,
Yashil libosini kiyar tabiyat.
Zilol soylar yana shildirab oqar,
Yengil shabbodalar jonlarga rohat.
Ko'zlarни quvnatar bodomlar gulи,
Yerlarda ochilgan mitti moychechak.
Maysadan to'qilgan yashil gilamga,
Qizg'aldoqlar bo'lar betakror bezak.
Osmonda uchadi yana qaldirg'och
Yalpizlar egallar ariq bo'yini.
Soylar qo'shig'iga qushlar jo'r bo'lar
Tabiat kuylaydi bahor kuyini.
Dala-yu dashtlarda boshlanadi ish,
Yaylovda o'tlaydi qo'ylar, qo'zilar.
Kimdir shudgoriga beradi ishlov,
Ko'chatlar ekadi yana ba'zilar.
Atlas ko'rk qo'shadi qizlar ko'rkiga,
Iroqi do'ppilar qo'nar boshlarga.
Tolpopuk taqadi sochiga qizlar;
O'smalar rang berar qora qoshlarga.
Navro'zning nafasi qoplab borliqni,
Bug'doylar ham asta unishni boshlar.
Rosa cho'miladi zilol suvlarda,
Sumalaklar uchun terilgan toshlar.
Sayllar bo'ladi bayram kunlari,
Turfa varraklarga to'ladi falak.
Mehr-oqibatning isin taratib,
Qozonlarda qaynab turar sumalak.
Boshqacha bo'ladi qishloqda bahor,
Go'yo butun borlig' cho'madi nurga.
Qishloqlardan bahor ketmaydi sira,
Qalblarda yashaydi biz bilan birga.*

**Tohir DEHQONBOYEV,
II Pediatriya fakulteti 309-guruhan talabasi**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:

KAFEDRA MUDIRLAR: Fakultet bolalar xirurgiyasi.

ASSISTENTLAR: Neonatologiya; Bolalar kasalliklari propedevtikasi; Asab kasalliklari; Otorinolorin-gologiya, bolalar otorinolaringologiyasi; Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Oilaviy shifokor №1; Oftalmologiya, bolalar oftalmologiyasi; Psixiatriya, narkologiya va bolalar psixiatriyasi, tibbiy psixologiya, psixoterapiya; Teri va tanosil, bolalar teri va tanosil kasalliklari, OITS; Ftiziatriya va pulmonologiya.

Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.

Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekat. 12.03.2022.

PEDIATR	
TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТУТА	
TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСИТУТА	

Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, Nashr uchun mas'ul: Sh. Abduxoshimova	Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinnbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev	Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-soni bilan ro'yxtagta olinigan. Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223 “XALQ NASHRIYOTI” XKda chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Qorasoroy ko'chasi, 316 uy. Tel.: (71) 242-10; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nuxxa, qog'oz bichimi A3. Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.
--	--	--